

Ergashev Jahongir Yunus o'g'li
tarix fanlari falsafa doktori (PhD),
dotsent
j.y.ergashev@buxdu.uz

Samiev Ozod Fazliddin o'g'li
Buxoro davlat universiteti
magistranti

IKKINCHI INGLIZ–AFG‘ON URUSHI ARAFASIDA ROSSIYA VA ANGLIYA RAQOBATI HAMDA MARKAZIY OSIYODAGI GEOSIYOSIY JARAYONLAR

Annotatsiya. Maqolada XIX asrning 70-yillarida Rossiya va Angliya o'rtasidagi geosiyosiy raqobatning kuchayishi, Afg'oniston va Buxoro amirligi hududlari orqali olib borilgan tashqi siyosat va diplomatik harakatlar tahlil qilingan. Shuningdek, Usmonli turk sultonining musulmon olamidagi nufuzidan foydalanish orqali mintaqada antirus kayfiyatini kuchaytirish jarayonlari hamda ularning ikkinchi ingliz–afg'on urushi arafasidagi xalqaro munosabatlarga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Rossiya, Angliya, Afg'oniston, Buxoro amirligi, Usmonli turk sultoni, geosiyosiy raqobat, "Buyuk o'yin", XIX asr, ikkinchi ingliz–afg'on urushi.

АНГЛО-АФГАНСКИЙ КОНФЛИКТ МЕЖДУ РОССИЕЙ И АНГЛИЕЙ В ЦЕНТРАЛЬНО-АЗИАТСКОМ ГЕОПОЛИТИЧЕСКОМ ПРОТИВОСТОЯНИИ

Аннотация. В статье анализируется усиление геополитического соперничества между Россией и Англией в 70-е годы XIX века, внешнеполитическая деятельность в отношении Афганистана и Бухарского эмирата. Особое внимание уделяется использованию авторитета османского султана в мусульманском мире для формирования антирусских настроений и их влиянию на международные отношения накануне второй англо-афганской войны.

Ключевые слова: Россия, Англия, Афганистан, Бухарский эмират, Османский султан, геополитическое соперничество, "Большая игра", XIX век, вторая англо-афганская война.

THE ANGLO-AFGHAN CONFLICT BETWEEN RUSSIA AND BRITAIN IN THE CENTRAL ASIAN GEOPOLITICAL CONFRONTATION

Annotation. The article examines the intensification of geopolitical rivalry between Russia and Britain in the 1870s, focusing on their foreign policy strategies toward Afghanistan and the Emirate of Bukhara. Special emphasis is placed on the use of the Ottoman Sultan's authority in the Muslim world to strengthen anti-Russian sentiments and their impact on international relations on the eve of the Second Anglo-Afghan War.

Keywords: Russia, Britain, Afghanistan, Emirate of Bukhara, Ottoman Sultan, geopolitical rivalry, "Great Game", 19th century, Second Anglo-Afghan War

Kirish. XIX asrning 70-yillarida inglizlar "Hindistonga Rossiya xavfi" va uni bartaraf qilish bo'yicha targ'ibotchilikni kuchaytirib yuborganlar. Turk sultoni bilan ittifoqlikda O'rta Osiyo xonliklariga ta'sir o'tkazish rejasi ham inglizlarga tegishli bo'lganligi xususida ma'lumotlar ilmiy izlanishlarda keltirib o'tiladi[6. 52]. Inglizlarning O'rta Osiyo va Buxoro amirligida antirus kayfiyatini kuchayishi, beqarorlikni vujudga keltirishga urinishlarining asosiy sababi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoni Rossiya tomonidan istilo etilishini va ushbu davlatlarni o'z sanoat mahsulotlari sotiladigan, arzon xam-ashyo bozorga aylantira olmaganliklari uchun Rossiya imperiyasini kechira olmaganliklari deb keltiriladi. Buyuk Britaniya Avg'oniston va

- 16 Buxoro amirligida targ'ibotchi turk agentlaridan foydalanish orqali o'lkada antirus kayfiyatini kuchaytirishga harakat qilgan deb xulosa qilish mumkin[15. 166].

"Ruskiy mir" matbuot organining 1875 yil 140-sonida keltirilgan ma'lumotlarida, Rossiya hukumron doiralari kelajakda Turkiya bilan harbiy to'qnashuvda ishtirok etadigan bo'lsa, asosiy frontlar Qora va Boltiq dengizlari atrofi ya'ni, Rossiya imperiyasining Yevropa qismi emas, balki, asosiy front O'rta Osiyo bo'lishi mumkinligiga oid fikrlar keltirilgan[16. 170]. Yaqin orada Turkiya va Rossiya o'rtasida O'rta Osiyo, Buxoro uchun urush harakatlari boshlanishi masalasi hamisha muammoli bo'lib, Turk targ'ibotchilarini moliyalashtiruvchi asosiy davlat Angliya edi. Yuqorida zikr etilgan "Ruskiy mir" jurnalining 1875 yil 140-sonida keltirilgan ma'lumotlarda, O'rta Osiyo masalasida Angliya va Turkiya o'zaro hamfikir bo'lsalarda, ular o'rtasida ham ziddiyat mavjud bo'lgan[16. 148]. Bu davrda Avg'oniston hukumdori Sheralixon va Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman o'rtasida iliqliq munosabatlar vujudga kelgan bo'lib, bu inglizlar tashqi siyosatiga xavf solgan. Ikki o'rtada siyosiy masalalarda o'zaro yozishmalar va xat almashish jarayonlari 1870 yilning 28 martidan, 1879 yil Sheralixon vafotiga qadar davom etgandi[19. 243].

Avg'onistonda ingliz-turk ittifoqi yangi hukumdor (ingliz siyosatiga moyil)ni taxtga chiqarish va so'ng O'rta Osiyoda antirus ittifoqini vujudga keltirishga harakat qilganlar. 1875 yil Buxoro amiri Muzaffarxon Samarqandda siyosiy qochoq sifatida yashayotgan Avg'oniston taxtiga da'vogarlardan biri Abdurahmonxonni Avg'onistonga qo'yib yuborishni Turkiston general-gubernatorligidan iltimos qiladi[1. 417]. Ikkinchi bir tomondan esa, Buxoro amiri tashqi siyosiy masalalarda Rossiya ijozatisiz faoliyat olib borishi ta'qiqlangan bo'lsada, 1874 yilda Avg'oniston tomonidan bosib olingan Maymana bekligini o'ziga qaytarilishini talab qilib chiqqan. Buxoro amirligini ingliz-turk targ'ibotchilari ta'siri ostida, ma'lum bir hududlarni va'da qilish orqali Buxoro amirligi yordamida Avg'oniston taxtiga inglizlarga moyil shaxsni taxtga chiqarishga jalb etilgan deb xulosa qilish mumkin.

G.A. Hidoyatov ma'lumotlarida, XIX asrning 70-yillarda inglizlarning Avg'onistonda ayg'oqchilik tizimi chuqur ildiz otganligi, ayg'oqchilik tizimi shu qadar kuchli yo'lga qo'yanligidan, hatto, amir haramida ham inglizlarning ko'z-quloqlari mavjud bo'lganligi qayd etib o'tiladi. Turkiston general-gubernatori Kaufman va Sheralixon o'rtasidagi yozishmalardan ham inglizlar doimo xabardor bo'lib turganliklari qayd etib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin[19. 222]. K.P. fon Kaufmanning Sheralixon bilan maktub almashib turishi, Rossiya imperiyasi tomonidan Avg'onistonni Turkiya bilan bo'lajak urushda va Buxoro orqali Turkiston ishlariga aralashishdan tiyib turishga xizmat qilgan. Kaufman Sheralixonga yo'llayotgan maktublarini atayin ingliz tiliga ham tarjima qilib yuborgan. Xat mazmuni bilan baribir inglizlar tanishishi mumkinligi uchun shu yo'lni tutganligini akademik V.V. Bartold keltirib o'tadi[1. 417].

Avg'oniston va Turkiston general-gubernatorligi o'rtasida munosabatlarning iliqlashib borish jarayonidan ayg'oqchilar xabarlaridan taxtga boshqa shaxsni o'tqazish zarurligini anglagan ingliz hukumati 70-yillar boshidayoq Avg'oniston taxtiga Sheralixonga qarshi o'z o'g'li Yoqubxon tomonidan qo'zg'olon ko'tarilishini tashkillashtirgan. "Turkiston to'plami"ning 1870 yil 15 iyul sanasiga oid ma'lumotlarida, Sheralixonning o'g'li o'z otasiga qarshi isyon ko'targani, Muhammad Yoqubxonning G'azna va Qandahorni egallashga urinishlariga oid xabarlar keltirib o'tilgan[9].

Avg'onistonda Rossiya ta'siri masalasi xavfli tus olganligi sababli, Buxoroda ingliz ta'sirini kuchaytirishga urinishlar kuchayib bu borada Turkiya targ'ibotidan keng foydalaniladi. Ikkinchi bir tomondan esa, XIX asrning 70-yillarida rus-turk ziddiyatlari Bolqon yarim orolida ham kuchayib, Turkiya tarkibida bo'lgan slavyan xalqlari orasida Rossiya ta'sirining kuchayishi kuzatila boshlangan. 1875-1876 yillarda Bolqonda bo'lgan (Serbiya qo'zg'oloni) qo'zg'olon va keyingi yillarda Bolqonda Rossiya imperiyasi ta'sirining oshib borishi Angliya-Rossiya ziddiyatlarini ham kuchaytirib yuborganligi tarixiy adabiyotlarda keltrib o'tilgan. Britaniya imperiyasi Turkiyani qo'llash orqali O'rta Osiyo davlatlarida ta'sir ko'rsatish va o'ziga moyil siyosat yuritilish yo'lga o'tgan[19. 453].

Turk sultonining Sharq dunyosida barcha musulmonlarning oliy yetakchisi sifatida ulug'lanishi o'sha davr manbalarida ko'p bora tilga olingan. Turk sultoni Abdulhamid II Buxoro

siyosiy va ziyoli elitasi uchun alohida ahamiyatga ega shaxslardan biri hisoblangan. XIX asrda yashagan buxorolik muarrixlarning ayrimlar uni musulmonlarga g'amxo'r, doim "g'azovot" haqida qayg'uradigan inson sifatida tariflanganligi yuqoridagi fikr-mulohazalarimizni asoslashga xizmat qiladi[13. 27].

Angliyaning mintaqadagi siyosatida Turkiya va Buxoro muhim ahamiyatga ega bo'lib, Rossiya imperiyasi ma'murlari Turkiya bilan kutilayotgan urushda Angliyani neytral holda tutib turish muhim edi. Buning uchun Turkiston general-gubernatorligi va Avg'oniston o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatiladi. Avg'oniston davlati antirus targ'ibotiga qo'shilishdan bosh tortgan. Chunki, inglizlar tomonidan Kelat va Kvetta hududlarining egallanishidan Sheralixon norozi bo'lgan. Inglizlarning siyosatdagi nozik nuqtasi Hindiston bo'lib, Buxoroning Rossiya imperiyasiga qaramligi, Avg'onistonning ruslarga moyilligi Rossiyani Hindiston chegarasiga tezda yaqinlashish imkonini berargan va inglizlarni ruslarning ehtimoliy hujumlari xavotirga solib turgan[11. 67].

Turkiston general-gubernatorligi bilan yaqin aloqalar Avg'onistonni bo'lajak urush davrida inglizlarni Turkiya tomonidan urushga kirishiga qisman bo'lsada tiyib turgan. Turkiya elchilari, targ'ibotchilari inglizlar bilan ittifoqchilikni bir necha marta taklif qilsada, Sheralixon bu takliflarni rad etadi. Aksincha, 1876 yil Avg'oniston hukumdori Sheralixon Turk sultoniga yo'llagan maktubida, inglizlarga ishonmaslik, ularning va'dasi muzga yozilgan so'zga o'xshashi, bu amalda bir necha marta tasdiqlanganligi, inglizlarga do'st tutinganlarni og'ir damlarda taqdir hukmiga yolg'iz tashlab ketishlariga oid fikr-mulohazalarni yozib yuboradi[17. 36]. Bunday holat keyinchalik boshlanib ketgan Rus-turk urushi (1877-1878 yy) Buxoro va Turkiston o'lkasida Rossiya manfaatlarini tahlikaga ostiga kelib qolishiga sabab bo'ladi. Urush esa, geosiyosiy nuqtai-nazardan Rossiya hukumron doiralarini Usmoniylarning potensial ittifoqchisi bo'lgan Angliya bilan urush holatiga yaqin keltirib, vaziyat O'rta Osiyo uchun xavfli tus olganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan. Ehtimoliy urush harakatlaridan xavfsiragan Rossiya imperiyasi ma'murlari Turkiston o'lkasiga Orenburg va G'arbiy Sibir hududlariga qo'shimcha askarlarni jo'natishga majbur bo'ladilar[12. 77]. Rus-turk urushi va uning oqibatlari natijasida Yevropa davlatlari katta urushga tortilish arafasida qoladilar. Turkiyani qo'llab-quvvatlash evaziga Angliya Buxoro va u orqali Turkiston bozorlarini egallashga harakat qilgan bo'lsa, Germaniya XIX asr 70-yillarida Rossiyaning Angliya bilan O'rta Osiyodagi raqobatida Rossiyani qo'llab-quvvatlash orqali Fransiyaga qarshi kurashda Rossiya qo'llab-quvvatlashiga erishishga harakat qilganligi tarixiy adabiyotlarda o'z aksini topgan[10. 21].

1876 yildan so'ng Kobul orqali Buxoroga ko'plab turk emissarlari kirib kela boshlagan bo'lib, bu hol rus-turk urushi arafasida ayniqsa kuchayganligi tarixiy adabiyotlarda qayd etilgan. 1877 yilning aprel oyida Turk sultoni elchilari Kobulga kelib, Avg'oniston bilan ittifoqlikda ruslarga qarshi kurashish, inglizlardan yordam olishni taklif qiladi. Ammo, bu vaqtda Sheralixonning Kaufman bilan siyosiy va diplomatik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, turklarning takliflari va niyatlaridan Sheralixon Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufmanni ogohlantirganligini ko'rishimiz mumkin[20. 120].

Kobulga kelgan turk targ'ibotchisi ko'zga ko'rgan siyosiy arbob bo'lib, o'sha davr manbalarida bu shaxs Ahmad Xulusi afandi ekanligi qayd etib o'tiladi. Rossiya imperiyasi matbuotida ham bu xususda ma'lumotlar keltirilib, "Golos" gazetasining 1877 yil 21 noyabrdagi 275-sonida, Ahmad Xulusi afandi Kobulga kelganda, uni zo'r tantana va e'tibor bilan kutib olinishi, uning asosiy vazifasi Sheralixonni inglizlar bilan do'stona aloqada bo'lishga chorlash bo'lganligi keltirib o'tilganligini o'sha davr manbalaridagi ma'lumotlar tasdiqlaydi[8. 31].

Kobulga yetib kelgan Ahmad Xulusi afandi Sheralixonga Usmonli turklarning ruslarga qarshi "g'azovot" urushini boshlaganliklari, barcha musulmonlar bunga ishtirok etishi zarurligi, Avg'oniston amiri Buxoro davlati bilan birgalikda kurashga ko'tarilishi lozimligini Sheralixonga uqtirishga harakat qilgan[19 255]. N.A. Xalfin ma'lumotlarida, Ahmad Xulusi afandi Avg'oniston hukumdoriga Turk sultoni tomondan yozilgan maktub ham olib kelgan bo'lib, 1877 yil Sheralixonga sulton maktubi ham topshirilgan. Maktubda Turk sultoni Sheralixonni inglizlar bilan ittifoqlikda ruslarga qarshi kurashish, Buxoro va Xivani ruslardan ozod qilishda hamkorlik taklif qilganligi bitilgan[17. 41]. Usmoniylar davlati elchisiga va sulton maktubiga javob berar ekan

- 18 Sheralixon ana bir bor inglizlar bilan ittifoq bo'lish xavfliligini ta'kidlab, bir necha yillar oldin O'rta Osiyo davlatlari Turkiyadan xuddi shunday vaziyatda ruslarga qarshi kurashda yordam so'raganliklari va o'shanda Turk sultoni ularni eshitmaganligini, yordam bermaganligini eslatib o'tganligini G.A. Hidoyatov o'z izlanishlarida keltirib o'tganligini ko'rishimiz mumkin[19. 255].

Ahmad Xulusi afandining Kobuldagi faoliyati xususida A.D. Vasilev ham keltirib, 1877-1878 yillardagi Rossiya-Turkiya urushi davrida barcha musulmonlarni birlashtirish zarurligi, urushdan foydalanib Rossiyadan Buxoro va Xivani ozod qilish lozimligini, bu boradagi ishlarda avg'onlarni turkmanlar va buxoroliklar qo'llab-quvvatlashi[3] bilan bog'liq ma'lumotlarni keltirib o'tadiki, bu hol Buxoro amirligi va turkmanlar bilan Turk sultoni boshchiligida Rossiya imperiyasiga qarshi kurashish uchun ittifoq tuzilgan deb xulosa qilish mumkin.

Kobulga Usmonli turk davlati elchilarining ruslarga qarshi ittifoqqa kirishga chorlab ko'p bora kelganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan. Bu elchilar orasida Buxoro amirligi aholisi vakillari ham bo'lganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar mavjud. Jumladan, 1877 yilning kuzida Kobulga yetib kelgan Turk elchilari yetakchilaridan biri buxorolik bo'lganligi xususida ma'lumotlar saqlanib qolingan. Buxorodan bo'lgan ushbu shaxs 60-yillardagi Buxoro-Turkiya munosabatlarida faol ishtirok etgan Sulaymon afandi bo'lgan. Sulaymon afandi 40-yillar oxiridan Istambulda muqim yashab qolgan va "o'zbeklar" tekkesi boshlig'i bo'lib, keyingi vaqtlarda Istambulga turli yumush bilan borgan buxoroliklardan inglizlar uchun ayg'oqchilar yollash bilan shug'ullangan. Elchilikning asosiy vazifasi Avg'onistonni Rossiya imperiyasiga qarshi urushga jalb etishdan iborat edi[19. 253]. Buxoroda turk targ'ibotchilari tomonidan 1877 yilda tarqatilgan xabarlarining birida, inglizlarning ruslarga qarshi 100 ming avg'on qo'shinlarini qurollantirganliklari, bundan tashqari Peshovarda ham 35 ming ingliz qo'shini turganligi, Buxoro amiri Turkiya bilan tuzilgan shartnomani buzadigan bo'lsa, bu qo'shinlar Buxoroni istilo qilib, uni Avg'oniston davlati tarkibiga qo'shilishini ta'minlashi bilan bog'liq ma'lumotlarni tarqatish bilan shug'ullanganliklarini ko'rish mumkin[2].

Deyarli barcha turk elchilari ham biz yuqorida keltirib o'tgan, yayg'oqchilik bilan shug'ullanganlar. Hatto, eng nufuzli hisoblangan elchilar ham o'zlari kelgan davlatlarning harbiy-strategik xarakteristikasi xususida ma'lumotlarni to'plaganliklari xususida tarixiy adabiyotlarda ma'lumotlar keltirib o'tiladi. 1878 yil yozida Kobulga kelgan Ahmad Xulusi afandi ham inglizlarga Avg'oniston armiyasi, uning qurollanishi, artileriyasi haqidagi ma'lumotlarni yetkazib beradi[19. 144]. Bu vaqtda Rossiya hukumron doiralariining maqsadi, Avg'oniston orqali Angliyani tiyib turishga qaratilgan bo'lib, turklar va ularning inglizlar bilan hamkorligi xususidagi ma'lumotlarni Rossiya ma'murlari Sheralixonga yetkazib turganlar. 1878 yilda Avg'onistonda bo'lgan rus generali Stoletov ham Avg'oniston bosh vaziri shoh Muhammadxonga maktub yo'llab, inglizlar Turk sultoni qo'li bilan Avg'oniston va inglizlarni ittifoqdosh qilishga urinishlaridan ogohlantirgan va daryoning narigi tomoni (Hind daryosi ko'zda tutilmoqda)dagi birodarlarini diqqat bilan kuzatishlarini maslahat berganligiga oid ma'lumotlar mavjud[14. 86].

Turk targ'ibotchilari butun Turkiston hududlariga tarqalib, antirus kayfiyatini shakllantirishga harakat qilganlar. Shu sababli bo'lsa kerak Russ-turk urushi davrida Buxoro amirligi hududidan Turkiston o'lkasiga o'tuvchi va har qanday shubha uyg'otuvchi shaxslarni diqqat bilan tekshirib borilganligini ko'rish mumkin. Shubhali shaxslar va ularni tekshirib, tayyorlangan axborotlar yuqori idora va tashkilotlarga yuborilgan. Masalan, 1877 yilning avgustida Kattaqo'rg'on uezdi boshlig'ining o'z rahbari Zarafshon okrugi boshlig'iga yo'llagan №1366 raqamli xatida, 5 avgust kuni Kattaqo'rg'on Buxorodan bir qozoq va bir turk (shubhali deb hisoblangan-J. E.) kelganligi, ular Karimboy Davletshin uyida to'xtaganligi, uezd ma'muriyati tomonidan ular targ'ibotchilar sifatida to'xtatilib, tintuv o'tkazilganligi va tergov qilinganligi xususidagi axborotini yozib yuborgan[6. 52].

Buxoroda ham Turkiya bilan ittifoq tuzilganligini tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Buxoro shahriga 1883 yilda iyulda ilmiy tadqiqot ishlari bilan kelgan tarixchi V.V. Krestovskiy faoliyati davomida bir necha bor Buxoro qushbegisi mulla Muhammadbiy bilan suhbatlashadi. Suhbatlarning birida, Buxoro qushbegisining ochiqchasiga rus-turk urushi davrida Abdulhamid II Buxoroga elchi yuborib, birgalikda Rossiyaga qarshi kurashishni taklif qilganligini

keltirib o'tganligini V.V. Krestovskiy "Russkiy vestnik" matbuot organining 1884 yil iyul oyi sonlaridan birida chop etgan[19. 195].

Buxoroda Turk sultonining ta'sirini oshishida Yevropa davlatlarining Rossiyaga qarshi Turk sultonini qo'llab-quvvatlashlari ham sabab bo'lgan deb xulosa qilishga yetarlicha asoslarimiz mavjud. "Turkiston to'plami"da keltirilgan ko'plab ma'lumotlarda Usmonli turk davlatining Yevropa davlatlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, bu esa, uning Sharq musulmon dunyosida ustun mavqega ega bo'lishini ta'minlayotganligiga oid fikr-mulohazalar keltirib o'tilganligini ko'rish mumkin. To'plamning 185-tomidagi ma'lumotlarida, yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarni asoslashga xizmat qiladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, Turkiya nafaqat Sharqiy Yevropa mamlakatlari, balki, Xiva, Buxoro, Avg'oniston, Sharqiy Turkiston va boshqa ko'plab hududlarni Yevropa mamlakatlari qo'llab-quvvatlaganligi uchun qo'lida saqlab turibdi degan jumlar keltirib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin[4. 4].

Turkiston general-gubernatorligi ayg'oqchilik idoralari Buxoroning Russ-Turk urushi davrida Rossiyaga qarshi urushga tortilish ehtimolini chuqur o'rganganlar. Turk elchilari va targ'ibotchilarining kelishi va har bir qadamini kuzatib borganlar. Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman tomonidan Rossiya imperiyasi harbiy vazirga yo'llangan keyingi maktublarning birida, Buxoroni Rossiyaga qarshi urushga tortish uchun Turk sultoni elchisi kelganligi, ma'lum bir muddat Buxoro shahridagi Kosagaron mahallasida yashaganligi, keyinroq esa, Shahrisabzga ketib, shu yerda yashayotganligini va targ'ibot ishlari bilan shug'ullanayotganligini ma'lum qiladi[19. 196]. Shuningdek, 1877-1878 yillardagi Russ-Turk urushi davrida Rossiya harbiy vaziri Milyutinga yo'llagan maktublarining yana birida K.P. Kaufman Buxoro amirligini Turkiya tomonidan Rossiya imperiyasiga qarshi kurashga tortishga harakat bo'layotganliginima'um qiladi. Ushbu maktub 1877 yil iyulida vazirga yo'llangan bo'lib, Istambuldan Buxoroga amir Muzaffarning katta o'g'li (Abdumalik katta to'ra)dan ham elchilar Turkiya bilan hamkorlikda Rossiyaga qarshi kurash olib borish taklifi bilan kelganligini qayd etib o'tgan[19. 196].

Russ-Turk urushida Rossiyaning g'alabalari Angliya va uning kelajakdagi Osiyodagi siyosati uchun xavfli bo'lib, inglizlar urush davrida Istambulga taniqli diplomat hisoblangan Leyyardni elchi qilib yuboradilar. Istambulga yetib kelgan Leyyard Rus-turk urushi davrida Istambuldagi ikki o'rtada o'zaro tinchlik muzokaralariga imkon qadar yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi. Shu bilan bir qatorda o'z hukumatiga yo'llagan axborotlarining birida, ingliz hukumatiga to'rtta taklifini yozib yuborgan. Ushbu takliflarning uchinchisi O'rtta Osiyo davlatlariga, xususan Afg'oniston va Buxoroga ta'liqli bo'lib, unda O'rtta Osiyodagi musulmon davlatlarining Rossiya imperiyasiga qarshi kayfiyatni kuchaytirish va bu ishni Turk sultoni ta'siri ostida amalga oshirish lozimligi keltirib o'tilgan[19. 189].

Ingliz elchisi Leyyard rus-turk urushi va undan keyingi davrda Turkiya tashqi siyosatida asosiy yetakchi kuch bo'lib oladi. Aynan ushbu shaxsning tashabbusi bilan 1877 yil avgusti va 1878 yil yozida Avg'onistonga Turk sultoni elchilari (Ahmad Xulusi afandi va Sulaymon afandi) yuborilgan. Elchilar Leyyard topshirig'iga ko'ra, Turk sultoni nomidan Avg'oniston amiriga Angliya bilan munosabatlarni buzmaslik, dushmanona kayfiyatda bo'lmaslik, Rossiyaga qarshi ittifoq bo'lishni talab qilganlar[19. 194]. Bu xususda yuqorida bir qadar to'liqroq to'xtalib o'tgan edik. Urush davrida ham O'rtta Osiyo davlatlari va Turkiya o'rtasidagi munosabatlar to'xtab qolmagan. Garchi Avg'oniston amiri Sheraxon Rossiyaga qarshi ittifoqqa birlashmagan bo'lsada, Turkiyaning Rossiya imperiyasidan mag'lubiyatga uchrashiga imkon qadar hamdardlik bildirganligi bilan bog'liq ma'lumotlar mavjud. Russ-Turk urushi oxirlarida Sheraxon turk sultoniga maktub yo'llab, Rossiya imperiyasi qo'shinlarining Istambulga yaqinlashib kelganligidan afsuslanganligini ma'lum qiladi. Shu bilan birga ittifoq taklif qilib va Turk sultoni nomidan kelgan ingliz elchilarini Peshovarga qaytarib jo'natayotganligini, inglizlarga ishonib bo'lmasligini, ular foydalanib bo'lgach, xiyonat qilishi, zarur bo'lgan vaqtda yordam berish o'rniga taqdir hukmiga tashlab ketishlari xususidagi fikr-mulohazalardan iborat maktubni yozib yuborganligi ma'lum[7].

Inglizlarning bu safargi elchilari ham o'z oldiga qo'ygan vazifani uddalay olmay qaytadi. Russ-Turk urushi davrida, xususan uning oxirgi bosqichi jarayonlarida ingliz elchilarining faollashuvi San-Stefano shartnomasidan inglizlarning noroziligi bo'lib, uni qayta ko'rib chiqishni talab qilgan davlatlardan biri edi. Angliya tashabbusi bilan Avstriya-Vengriya ham antirus davlatlar lagerida ekanligi Rossiyani qiyin ahvolga solib qo'ygandi. Avstro-Vengriya imperiyasi va Turkiya o'rtasidagi muzokarlarda ham buxorolik Sulaymon afandi faoliyati alohida ahamiyat kasb etgan[5. 38-50]. Demak, rus-turk urushida Yevropa davlatlari tomonidan Turkiyani qo'llab-quvvatlanishida buxoroliklarning ham alohida xizmatlari bor deb aytish mumkin. Bu davrda inglizlar rus-turk urushidan so'ng antirus ittifoqini Yevropa va Osiyo shakllantirishga uringanlar[18. 116]. Bu esa, Rossiyaning O'rta Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy hukmronligini xavf ostiga qo'ygan.

Xulosa. XIX asrning 70-yillarida Rossiya va Angliya imperialistik davlatlari o'zlarining geosiyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun Afg'oniston va Buxoro amirligidan turli yo'llar bilan foydalanishga harakat qilganlar. Jumladan musulmon olamida yuksak mavqega ega bo'lgan Usmonli turk sultoni va davlatidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanganlar. Davlat mustaqilligini qo'lga kiritish va kuchli homiy davlatga ega bo'lish Buxoro va Afg'oniston hukmdor tabaqasining intilishlari bo'lsa, Turkiya tomonida bo'lganligi sababli inglizlar Usmonli turk suldtoni mavqeidan foydalanib Rossiya imperiyasiga ta'sir o'tkazib, uni tiyib turishga harakat qilganlar. Turkiyani qo'llab-quvvatlash orqali "Hindistonga rus tajovuzini" oldini olishga harakat qilganlar. 1877-1878 yillarda sodir bo'lgan rus-turk urushi Rossiya imperiyasini iqtisodiy va siyosiy jihatdan og'ir ahvolga solib qo'ygan bo'lib, 1878-1880 yillardagi ingliz-avg'on urushida Rossiyaning Angliyaga xavf tug'dirig imkoniyatlari yo'qqa chiqarilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бартольд В.В. Сочинения в 9-ти томах. Том II. Часть 1. Общие работы по истории Средней Азии. Работы по истории Кавказа и Восточной Европы. – М.: Издательство восточной литературы, 1963. – С. 417.
2. Борба Петербурга и Стамбула за политическое, экономическое и культурно-религиозное влияние в Центральной Азии. (Б.Акунин). //http sozlib. Com850832 sotsium borba_stambula_politicheskoe_ekonomicheskoe_kulturno_religioznoe_vliyanie_tsentralnoy_azii
3. Васильев А.Д. Взаимоотношения Османской империи и государств Центральной Азии в Середине XIX-начале XX вв. Автореферат соискание ученой степени кандидата исторических наук. – М.: 2007. [www dislib.net/vseobwaja-istoria/vzaimootnosheniya-osmansroj-imperii-i-gosudarstv-centralnoj-azii-v-seredine-XIX.html](http://www.dislib.net/vseobwaja-istoria/vzaimootnosheniya-osmansroj-imperii-i-gosudarstv-centralnoj-azii-v-seredine-XIX.html).
4. Венюков М.А. Очерк международных вопросов Азии. //Туркестанский сборник. Том 185. – С. 3-51.
5. Ғайбуллаев С. Бухоролик шайх ва элчи қисмати // С.Ғайбуллаев - Т.: – Lesson press нашриёти, 2020.
6. Зияев Ҳ.З., Ланда Л.М. Исследования о присоединение Средней Азии к России. //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1968. №1. – С. 51-52.
7. Из Оренбурга. // Голос №273. 28 октября, 1878 года.
8. Из Оренбурга. // Туркестанский сборник Том 195. – С. 30-31.
9. Известия из Афганистана. // Туркестанские ведомости №16. 1870 года, 15 июля.
10. Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края (1865-1917). – М.: Наука, 1980. – 117 с.
11. Кауфманский сборник. Изданный в память 25 лет истекших со дня смерти покорителя и устроителя Туркестанского края генерал-адъютанта К.П. фон Кауфмана I-го. – Москва, Типо-литография Т-ва И.Н. Кушнерев и К^о, 1910. – 247 с.
12. Крупешкин Е.Н. Туркестан в составе Российской империи (1865-1917 гг.): От военно-административного управления к гражданского-административному. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Томск, 2018. – 190 с.

13. Мирза Абдулазиз Саъми. Тарихи салатини Мангытия (История мангитских государей)./Издание текста, передисловие, перевод и примечания Л.М. Епифановой. – М.: Издательство восточной литературы, 1962. – 177 с.
14. Путешествие русского посольства пр Афганистану и Бухарскому ханству в 1878-1879 гг. Из дневников член посольства, Д-ра И.Л. Яворскаго. Действительного члена императорскаго Русскаго Географическаго общева в двух томах. Том II. – С.-Петербург 1883. – 387 с.
15. Россия-Средняя Азия: Политика и ислам в конце XVIII-начале XXI века. – М.: Издательство Московского университета, 2013. – 480 с.; илл.
16. С.-Петербург. 23-го августа 1875 г. //Туркестанский сборник.Том 148. – С. 170. – С. 170-173.
17. Халфин Н.А. Провал Британский агрессии а Афганистане XIX-начало XX. – М.: Изд-во социально-экон. лит-ры, 1959. – 208 с.
18. Хараташвили Г.С. Русские путешественники посетувшие Афганистана при эмире Шер Алихане (1863-1879)//Вестник СПбГУ. Сер. 13. 2009. Вып. 2. – С. 115-119.
19. Хидоятов Г.А. Из истории Англо-Русских отношений в Средней Азии в конце XIX в. (60-70 гг.). – Т.: Фан, 1969. – 453 с.
20. Шикорад А.Б. Россия-Англия: неизвестная война 1857-1907. – М.: АСТ, 2003. – 502 с.